

## GINGIVIT: SABABLARI, BELGILARI VA DAVOLASH YONDASHUVLARI

**Babadjanova Adolat Tolibovna** assistent  
Buxoro innovatsion ta'lim tibbiyot universiteti  
[adolat.babadjanova.89@mail.ru](mailto:adolat.babadjanova.89@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada milk shilliq qavatining yallig'lanishi, etiologiyasi, kelib chiqish sabablari, davolash usullari xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Gingivit, kataral gingivit, yazvali gingivit, gipertrofik gingivit, atrofik gingivit, skleroterapiya, gingivaektomiya



**Gingivit** – bu milk shilliq qavatining yallig'lanish jarayoni bilan tavsiflangan kasallik. U o'tkir yoki surunkali bo'lishi mumkin. **Gingivit** ([lotincha](#): gingiva — milk, itis — yallig'lanish) — milk shilliq

qavatining yallig'lanishi. Me'da-ichak, nafas a'zolari, yurak-tomir, [nerv sistemasi](#), periodontit, paradontoz, qon kasalliklari, [infeksiyon kasalliklar](#), avitaminozlar, og'ir metallar (simob, qo'rg'oshin va b.)ning tuzlaridan zaharlanish, tish toshi gingivitga sabab bo'ladi. Ba'zan antibiotiklar yoki boshqa dorilar qabul qilinganda ham gingivit yuzaga keladi. Hayz sikli buzilganda, homiladorlik va balog'atga yetish davrida ko'p uchraydi. Chirigan tish qirrasi, noto'g'ri qo'yilgan tish yoki yasama tish, shuningdek, dag'al tish cho'tkasining milkni zararlashi, kimyoviy moddalar va issiqdan kuyish ham gingivitga sabab bo'lishi mumkin.

### **Kasallikning quyidagi shakllari mavjud:**

- 1) kataral gingivit- milkning shishishi va qizarishi bilan namoyon bo'ladi, bezillab turadi va salga qonaydi.

**2)** yarali (nekrotik-yazvali) gingivit- milkning nekrotik (o'lik) joylari shakllanishi bilan tavsiflanadi, milk cheti kulrang karash bilan qoplanadi, ostidan yara chiqadi, og'izdan sassiq hid keladi. So'lak oqadi, temperatura ko'tariladi, jag' ostidagi limfa bezlari kattalashadi.

**3)** gipertrofik gingivit- milk to'qimalarining hajmining sezilarli darajada oshishi va undan qon chiqish bilan belgilanadi, milk o'sib, butun tishni qoplaydi, og'riq sezilmaydi.

**4)** atrofik gingivit – gingival to'qima hajmining pasayishi kuzatiladi, natijada milk darajasi pasayadi va tish ildizi ochilib qoladi. Shunda noxush oqibatlarga olib keladi: sovuq yoki isiqqa og'riqli reaksiya.

**5)** deskvamativ (geografik) gingivit- shilliq qavat epiteliyasining kuchli qizarishi bilan tavsiflanadi.

Shish, milkning qizarishi, tana haroratining ko'tarilishi, milkdagi aftalar, milk giperplaziysi, milk sohasidagi qichishish, ovqatlanish paytida og'riq, og'izdan yoqimsiz hid, milk atrofiyasi (ildiz ochila boshlashi) gingivitga xos bo'lgan alomatlar hisoblanadi.

### **Gingivit uchun zarur bo'lgan davolash quyidagilarni o'z ichiga oladi:**

- professional og'iz gigienasi (tish toshlarini tozalash, tish karashlarini tozalash;
- og'iz bo'shlig'ini antiseptik bilan davolash;
- yallig'lanishga qarshi dorilar;
- jarrohlik (milkning gipertrofiyalangan qismini olib tashlash);
- skleroterapiya (kalsiy glyukonat) ;
- gingival papillaga steroid gormonal preparatlarni kiritish;
- zararlangan to'qimalarning diotermakoagulyatsiya -fizioterapiya usullari;
- milk massaji.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, kasallikning oldini olish uchun tish gigienasiga rioya qilish, chekishni tashlash, tish shifokori tomonidan muntazam ravishda tekshiruvdan o'tish (yiliga 1-2 marta) hamda kalsiyga boy ovqatlar, kalsiy preparatlarini iste'mol qilish tavsiya etiladi.

### **Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Мюллор Х.П. Пародонтология 2004 у.
2. Murtazayev S. S. va boshq. Bolalar og'iz bo`shlig`i shilliq qavati kasalliklari darslik 162 bet. 2018 y. Toshkent
3. Gafforov S.A., Rizayev J.A., Jilonov A.A., Sadiqova X.K. Stomatologiya. O'quv qo'llanma.-Toshkent. Lesson press.2018y.
4. Dusmuhamedov D.M., Sadikova X. K. va hammualliflar. "Parodontal xirurgiya" O'quv uslubiy qo'llanma. –Toshkent TTA bosmaxonasi. 2019
5. Abdusalomovich, A. A. Bolalarda og'iz bo'zish shilliq qatlami kasalliklari tuzilishini yosh bo'yicha xususiyatlari. (2022).
6. Евразийский журнал медицинских и естественных наук, 2(3), 77–80. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJMNS/article/view/1276>
7. T.E. Zoirov Parodontologiya.196 b. Samarqand 2023 Samarqand
8. Mirzakulova Lola Tohirovsna. Parodont yallig'lanish kasalliklarini davolashni takomillashtirish. Stomatologiya (yo'naliishlar bo'yicha). Dissertatsiya akademik magistr darajasi uchun 90 b.